

1-TOM, 11-SON

**ZAMONAVIY ERON ADABIYOTI NAMOYONDASI ROZIYA TUJJOR
HIKOYALARIDA PEYZAJ TASVIRI VA UNING TARJIMADA AKS ETISHI**

Dilobar Asqarova

TDSHU 1-kurs magistranti

Telefon:(94)619 02 92

dilobar.asqarova.2000@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy Eron adabiyoti vakillaridan biri bo'lgan Roziya Tujjorning "Ham olma, ham yulduz" nomli hikoyalar to'plami va uning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari tahlil qilinib, peyzaj tasviriga oid misollar orqali ko'rib chiqildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad – zamonaviy fors adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asar tarjimalarini tahlil qilish, asliyat va tarjima matnlarini solishtirish orqali tarjimonning yutuq va kamchiliklarini, uning mahoratini o'rganishdan iborat. Mazkur maqolada tahliliy, tavsifiy va chog'ishtirish usullaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: tasvir, peyzaj, tarjimon mahorati, tabiat tasviri, chog'ishtirish, badiiy asar.

Аннотация. В данной статье на примере пейзажных изображений проанализирован и рассмотрен сборник рассказов Розии Туджор, одной из представительниц современной иранской литературы, «И яблоко, и звезда» и его переводы на узбекский язык. Целью написания данной статьи является анализ переводов произведений, переведенных из современной персидской литературы на узбекский язык, изучение достижений и недостатков переводчика и его навыков путем сравнения оригинального и переведенного текстов. В статье использованы аналитический, описательный и сравнительный методы.

Ключевые слова: образ, пейзаж, переводческое мастерство, образ природы, сравнение, художественное произведение.

Abstract. In this article, the collection of stories by Roziya Tujjor, one of the representatives of modern Iranian literature, "Ham olma, ham yulduz" and its translations into Uzbek language were analyzed and examined through examples of landscape images. The purpose of writing this article is to analyze the translations of works translated from modern Persian literature into Uzbek language, to study the achievements and shortcomings of the translator, his skills, by comparing the original and translated texts. Analytical, descriptive and comparative methods were used in this article.



1-TOM, 11-SON

Key words: image, landscape, translation skill, nature image, comparison, artistic work.

Tasvir (ar. تصوير – tasvirlash, biror narsaning suratini solish) – badiiy vositalar yordamida voqelikdagi narsa-hodisalarni o‘quvchi bevosita va yaxlit holda, ularga xos individual-betakror xususiyatlar bilan birgalikda konkret his eta oladigan tarzda aks ettirish. Badiiy adabiyotda tasvir so‘z vositasida amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra tasviriy san’atdan farqli o‘laroq, adabiy asarda tasvirlangan narsa-hodisa “ichki ko‘z” bilan ko‘riladi, so‘z vositasida o‘sha narsa-hodisa chizgilari muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi va oxir-oqibatda tasavvurda uning tasviri jonlanadi¹.

Badiiy asarlarda beriladigan tabiat tasviri badiiy asar mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Chunki asarda tarjimonning naqadar ijodkorligi, uning badiiy tasvir vositalaridan nechog‘lik unumli foydalana olganligi belgilab beradi. Shu sababdan ham badiiy asarda tabiat tasviri asarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi².

Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to‘g‘risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta’sirchanlik kasb etadi. Hayot haqidagi bilimlarning chalaligi va jo‘nligi, asliyat asari va uni yaratgan adibning tarjimai holi, ijodiyoti, badiiy uslubi ijodiy-xayotiy qarashlarini tugal o‘rganmaslik va bilmaslik, asliyatasari atrofidagi fikr-mulohazalar, bahslardan bexabarlik - hech shubhasizki, tarjimaning umumiy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o‘rganish, uning lug‘ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish, asarning ichki tuzilishi, obrazlari, qahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari, uslubi haqida o‘ziga xos material, ma’lumotnomalar tuzish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratadi³.

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. *Адабиётшунослик лугати.* – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 319.

² Shodmonova D. *Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi // Translation forum – 2022, №2(28), 2022.* – Б. 254.

³ G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. *Tarjima nazariyasi.* – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012 – B. 117.



1-TOM, 11-SON

Hozirgi zamon Eron adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri bo'lgan Roziya Tujjor qalamiga mansub "Ham olma, ham yulduz" hikoyalar to'plami yigirma ikkita hikoyalardan iborat. Roziya Tujjor garchi, nasrda qalam tebratgan yozuvchi bo'lsada, uning asarlarida qandaydir bir shoirona ruh hukm suradi. Shuning uchun uning uslubi boshqa ayol adibalar uslubidan keskin farq qiladi.

Yozuvchi suv, tog', yulduzlar, osmon, tun, qushlar va shu kabi peyzaj tasvirlaridan mohirona foydalangan. Uning asarlarida bu ob'ektlarni peyzajning asosiy ob'ektlari sifatida ko'ramiz. Shokirjon Olimov Roziya Tujjorning ushbu hikoyalar to'plamini o'zbek tiliga mohirona o'g'irgan. Ushbu tarjimon boshqa zamonaviy Eron adabiyoti namoyondalarining hikoyalarini ham o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Roziya Tujjorning "O'sha yulduzning siri" (راز آن ستاره) nomli hikoyasi quyidagi tasvir bilan boshlanadi:

Asliyat:

"در روزگار عطر و گلاب و نیشکر جوانی، شب ها که به آسمان نگاه می کردم، گوزنی بود، با شاخهایی از شبهایی سرخ، که ارابه ای از ابر را به دوش می کشید، با کوهی از ستاره های تبار" [1,69]

Tarjima:

"Xushbo'y hid, gulob va shakarqamishlarga to'la o'sha yoshlik chog'larimda, osmonga qaraganimda, ustiga bir uyum cho'g'dek yonib turgan qizil yulduzlar ortilgan bulut aravani yelkasi bilan tortib ketayotgan qizg'ish tunlardan bino bo'lgan shoxlari bor bir bug'uni ko'rardim" [2,129].

Yuqoridagi asliyat matn va tarjimadan keltirilgan parchaga to'xtaladigan bo'lsak, tarjimon asliyatdagi yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan tasvirni kirobxonga yetkazib bera olgan. Tarjimon yozuvchi ifodalab bergan tasvirni saqlab qolishga harakat qilgan. Ushbu hikoyada tabiat tasviri o'xshatishlar bila juda chiroyli berilgan. Yozuvchi so'zlar orqali tasvirni shunday chirouli berganki, buni tarjimada berish biroz mushkul bo'lishi aniq. Ammo, tarjimon ham yozuvchi uslubini saqlashga harakat qilgan. Tasvirda tun yulduzlar ortilgan bulutli aravani tortib ketayotgan bug'uga o'xshatilgan. Yozuvchi so'zlardan mohirona foydalangan bo'lib, buni atrjimon ham tarjimada maromiga yetkazib tarjima qila olgan. Kitobxon hikoyani boshlanishi bilanoq, tasvir go'zalligidan o'qishga berilib ketadi.

Shundan ham ma'lum bo'ladiki, tarjimon fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ba'zan so'zma-so'z tarjimadan qochib biroz tarjimaga ijodiy yondashgan holda ma'noni kitobxonga yetkazib berishga harakat qilishi kerak. Shundagina tarjima



1-TOM, 11-SON

muvvaffaqiyatli chiqadi. Tarjimon tarjima jarayonida tabiat tasvirini yozuvchining uslubidan chetlashmagan holda yetkazib berishga uringan. Bunga adibaning quyidagi tabiat tasviri bilan boshlanuvchi “Qorong‘ilikdan narida” (آن سوی تاریکی) hikoyasidan olingan parcha ham yaqqol misol bo‘la oladi:

Asliyat:

“وای که چقدر تاریک است! نه سوسوی چراغی، نه یک ستاره، نه ماهی و نه مهتابی که بتابد. مهتاب بود. انگار که نه، حتماً. وقتی می آمدی توی کوچه، همه جا روشن می شد. می شد ته آب را دید. جوی آب، که تپله های قفلگی داشت، و سکه های یک قرانی. می شد کنار آب نشست و شنید که چطور دلی دلی کنان می گذرد. حتی می توانستی شکوفه های درخت سیب را ببینی که پنج تا پنج تا، صورتشان را به هم می چسباندند و خواب می دیدند” [1,251].

Tarjima:

“*Aτροφ shunchalik qorong‘i ediki, bunda na milt etgan chiroq, na bir yaraqlagan yulduz va na nurlari bilan tunni oydin qiluvchi oy ko‘zga tashlanardi. To‘g‘risini aytganda, oy borday edi. Borday emas, aniq bor edi. Ko‘chaga kirib kelganida, hamma joy yorishib ketar, hatto suvning ostini, shildirab ovoz chiqaruvchi pufakchalari va bir qironlik⁴ tangalari bo‘lgan ariqdagi suvning ostini ko‘rish mumkin bo‘lardi. Bu chog‘da ariqning chetiga o‘tirib, suvning xirgoyi aytganicha qanday qilib oqib o‘tishini kuzatish mumkin edi. Xatto bunda beshta beshtadan bo‘lib, bir-birlariga yuzlarini qo‘yib olganlaricha shirin uyquga ketgan olma daraxtining gullarini ham ko‘rish qiyin emas edi*” [2,77].

Yuqorida asliyat va tarjima matnini qiyoslash orqali shuni ko‘rishimiz mumkinki, asliyat matnida yozuvchi tabiat tasvirini juda chiroyli ifodalagan va tarjimon ham bu tasvirni tarjima qilish jarayonida saqlab qolishni uddalagan va kitobxonga yetkazib berolgan desak, adashmagan bo‘lamiz. Tasvirlash jarajonida tarjimondan katta mahorat talab etiladi, chunki u tasvirni qayta yaratadi. Agar u ko‘ngildagidek tasvirni tarjimada aks ettira olmasa kitobxon asar tarjimasidan qoniqmaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, hech qanday badiiy asarni agar unda tabiat tasviri mukammal aks etmagan bo‘lsa, asarni maromiga yetkazib tarjima qilingan deyishimiz mumkin emas.

⁴ Erondagi eng kichik pul birligi(tarj)



1-TOM, 11-SON

Yuqorida Roziya Tujjor hikoyalaridagi peyzaj tasviri asl fors tilidagi matni va o'zbek tilidagi tarjima matnini qiyoslash orqali tarjimonning yutuqlari va kamchiliklarini ko'rib chiqish uchun asos bo'la oldi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yzouvchi peyzajni tasvirlash orqali ham o'z ichki kechinmalarini, ham asar bosh qahramoning ichki kechinmalarini ba'zi detallar orqali aks ettiradi. Tabiat tasviri, umuman olganda, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalana olgan yozuvchi, ijodkor bu orqali o'z badiiy mahoratini ham namoyon qila oladi. Ushbu maqola tarjimashunoslik nuqtai nazaridan, fors tilini o'rganishda amaliy ahamiyatga ega, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. راضيه تجار هم سيب، هم ستاره مجموعه داستان. - تهران. - ۱۳۸۶ صفحه ۲۶۴
2. *Розия Тужжор. Ҳам олма, ҳам юлдуз. – Тошкент: Янги нашр, – 200 б.*
3. *Davlatova A. Nurulla Chori asarlarida peyzaj tasvirining namoyon bo'lish omillari // International scientific journal "MODERN SCIENCE AND RESEARCH", №2(6), 2023. – 228-231 b.*
4. *Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: Академнашр, 2013. – 207 б.*
5. *Rasulova K. Oybekning "Navoiy" romani tarjimalarida tabiat tasvirining qayta aks etishi // Translation forum – 2022, №2(28), 2022. – 245-252 b.*
6. *Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 380 б.*
7. *Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.*
8. *G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 214 b.*
9. *Shodmonova D. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi // Translation forum – 2022, №2(28), 2022. – 253-257 b.*

